

**XALQ DEPUTATLARI
ELLIKQAL'A TUMANI
KENGASHI
QARORI**



**XALÍQ DEPUTATLARI
ELLIKQALA RAYONLÍQ
KENESINIŇ
SHESHIMI**

2023 - yil 6 - sentabr

VI-61-104-13-194-K/23

Ellikqal'a tuman hokimligi

Ellikqal'a tumanida ijtimoiy soha obyektlaridagi isitish tizimlarining kuz-qish mavsumida barqaror ishlashini ta'minlash, ushbu obyektlarga issiqlik energiyasini uzluksiz yetkazib berish hamda energiya resurslaridan oqilona va samarali foydalanish maqsadida sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish to'g'risida tuman hokimi o'rinbosari A.Seitovning taklifini muhokama etish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi "Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to'g'risida"gi PQ-118-sonli qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan, tumandagi ijtimoiy soha obyektlaridagi isitish tizimlarining kuz-qish mavsumida barqaror ishlashi, issiqlik energiyasini uzluksiz yetkazib berish, energiya resurslaridan oqilona va samarali foydalanish hamda modernizatsiya qilish to'g'risidagi tuman hokimi o'rinbosari A.Seitovning taklifini tinglab muhokama qilib hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Ellikqal'a tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi "Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to'g'risida"gi PQ-118-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-aprel kungi "Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to'g'risida"gi PQ-118-sonli qarori bilan ijtimoiy soha obyektlaridagi isitish tizimlarining kuz-qish mavsumida barqaror ishlashini ta'minlash, ushbu obyektlarga issiqlik energiyasini uzluksiz yetkazib berish hamda energiya resurslaridan oqilona va samarali foydalanish hamda sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish, shuningdek, 2023 — 2026-yillarda tuman hududida faoliyat yuritayotgan davlat ijtimoiy soha obyektlarini ko'mir yoqilg'isiga o'tkazish orqali kuz-qish mavsumida issiqlik energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash, qozonxonalarni modernizatsiya qilish hamda muassasalarning issiqlik tizimini

ta'mirlash va belgilangan me'yorlarda ishlashini ta'minlashni davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy sektor ishtirokida bosqichma-bosqich joriy etish choralari ko'rish belgilangan bo'lib, bunda:

a) mazkur qarorda ko'rsatilgan topshiriqlarning belgilangan muddatlarda bajarilishini nazorat qilib borishda:

- joriy yil 1-iyunga qadar jalb qilingan loyiha institutlari ko'magida tumandagi ijtimoiy soha obyektlarining issiqlik ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib, davlat ekspertizasidan o'tkazish va ushbu xarajatlar mahalliy budjet mablag'lari hisobidan amalga oshirish;

- joriy yil 1-iyulga qadar tumanda davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy soha obyektlarining issiqlik ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish va boshqarish loyihalarining kontseptsiyalarini tasdiqlash;

- joriy yil 1-avgustdan loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilgan va loyiha kontseptsiyalari tasdiqlangan ijtimoiy soha obyektlarining issiqlik tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish ishlarini boshlash belgilanganligi;

b) mazkur qarorga asosan loyihalarni amalga oshirishda:

- davlat sherigi etib — tuman hokimligi;

- xususiy sheriklar — O'zbekiston Respublikasining «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»gi Qonuni talablariga muvofiq tender o'tkazish va (yoki) Xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlarining qarorlari asosida eng maqbul takliflarni tanlab olish orqali aniqlash belgilanganligi;

d) loyihalarni amalga oshirishda quyidagi vazifa va majburiyatlar bajarilishini ta'minlashda:

1) davlat sheriklari tomonidan:

- loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishda ko'mir yoqilg'isida ishlaydigan energiya tejamkor qozonlarni o'rnatish va obyektlardagi ichki issiqlik tarmoqlarini modernizatsiya qilishni nazarda tutish;

- jalb qilingan xususiy sheriklar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va ularga isitish obyektlari va tizimlarini davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda belgilangan muddatda vaqtincha bepul foydalanishga berish;

- Davlat budjeti hisobidan ajratiladigan mablag'larning davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda belgilangan muddatlarda va miqdorlarda yo'naltirib

borilishini ta'minlash belgilangan.

2) xususiy sheriklar tomonidan:

- sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga muvofiq ijtimoiy soha obyektlarining ichki qismlarida davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning amal qilish muddati davomida issiqlik haroratini lozim darajada ta'minlash;

- isitish uchun me'yor bo'yicha talab etiladigan ko'mir va elektr energiyasi xarajatlarini kamida 20 foizga va issiqlik energiyasi yo'qotishlarini 30 foizga kamaytirish;

- ijtimoiy soha obyektlarida O'zbekiston Respublikasida kamida bir yil sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan va xizmat qilish kafolati kamida 15 yilni tashkil qiladigan qozonlarni o'rnatish;

- o'rnatiladigan isitish qozonlarining sifatini kafolatlash va muddatidan oldin yaroqsiz holatga kelgan isitish qozonlarini o'z mablag'lari hisobidan yangilash (bunday hollarda Davlat budjetidan qo'shimcha mablag' ajratilmaydi);

- ijtimoiy soha obyektlarini isitish bilan bog'liq barcha masalalarni o'z zimmasiga olishi;

e) loyihalarni amalga oshirishda modernizatsiya qilish va ta'mirlash xarajatlari uchun talab etiladigan investitsiya mablag'lari xususiy sheriklar va Davlat budjeti mablag'lari hisobidan ajratilib, xususiy sheriklarning ulushi kamida 50 foiz va obyektlarni ekspluatatsiya qilish muddati 10 yilni tashkil etishi;

f) Xalq deputatlari tuman kengashlariga xususiy sheriklarning eng maqbul takliflarini tanlab olishda:

- xususiy sheriklar mablag'larining ulushi kamida 50 foiz va undan yuqori bo'lishi;

- xususiy sheriklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun xarajatlar miqdori mahalliy budjet parametrlarida ushbu maqsadlar uchun ko'zda tutilgan mablag'larga nisbatan kam bo'lishi;

- xususiy sheriklarning soliq to'lovchi sifatida ishonchli bo'lishi va oxirgi yilda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadi 3 mlrd. so'mdan kam bo'lmasligi kabi talablarga e'tibor qaratish tavsiya etilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tumanda ijtimoiy soha obyektlaridagi isitish tizimlarining kuz-qish mavsumida barqaror ishlashini ta'minlash, ushbu obyektlarga issiqlik energiyasini

uzluksiz yetkazib berish hamda energiya resurslaridan oqilona va samarali foydalanish maqsadida sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish orqali xususiy sheriklar **“Ayozqal’a maxsus qurilish” MCHJga** (12 ta umumta’lim maktabi), **“Tuproqqal’a maxsus qurilish” MCHJga** (17 ta maktabgacha ta’lim muassasasi), **“Islombay Reimov” MCHJga** (8 ta umumta’lim maktabi) hamda **“Ellikqal’a qurilish ta’mirlash” firmasiga** (12 ta umumta’lim maktabi, 2 ta qishloq oilaviy poliklinikasi) tanlab olish to’g’risidagi tuman hokimi o’rinbosari A.Seitovning taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda, tumandagi ko‘mir yoqilg‘isiga o‘tkazish rejalashtirilayotgan 51 ta ijtimoiy soha obyektlarini:

- *ilovaga muvofiq* 6, 8, 10, 12, 15, 18, 21, 22, 23, 24, 25, 26, 27, 28, 29, 30 va 33-maktabgacha ta’lim muassasalarini davlat-xususiy sheriklik asosida tumanda faoliyat yuritayotgan **“Tuproqqal’a maxsus qurilish” MCHJga**;

- *ilovaga muvofiq* 10, 27, 28, 33, 41, 46, 62 va 70-umumiy o‘rta ta’lim maktablari davlat-xususiy sheriklik asosida **“Islombay Reimov” MCHJga**;

- *ilovaga muvofiq* 14, 18, 26, 29, 30, 31, 40, 44, 45, 52, 60 va 64-umumiy o‘rta ta’lim maktablari hamda Qumbaskan va Dumanqal’a oilaviy shifokorlik poliklinikalari davlat-xususiy sheriklik asosida **“Ellikqal’a qurilish ta’mirlash” firmasiga**;

- *ilovaga muvofiq* 1, 2, 3, 4, 5, 8, 9, 23, 49, 53, 58, va 68-umumiy o‘rta ta’lim maktablari davlat-xususiy sheriklik asosida **“Ayozqal’a maxsus qurilish” MCHJga** berish to’g’risidagi tuman hokimi o’rinbosari A.Seitovning taklifi ma’qullansin.

4. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va davlat ekspertizasidan o‘tkazish xarajatlari mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan qonun talablariga binoan amalga oshirilishini tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i M.Turebayevga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini ta’minlash tuman hokimi o‘rinbosari A.Seitov zimmasiga, qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Alimov zimmasiga yuklatilsin.

6. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari T.Nurimovaga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish vazifasi yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



S.Avezov

Xalq deputatlari Ellikqal'a tuman Kengashining
2023-yil 6-sentabrdagi
VI-61-104-13-194-K/23-son qaroriga
1-ilova

Ellikqal'a tumanida ijtimoiy soha obyektlaridagi isitish tizimlarining kuz-qish mavsumida barqaror ishlashini ta'minlash, ushbu obyektlarga issiqlik energiyasini uzluksiz yetkazib berish hamda energiya resurslaridan oqilona va samarali foydalanish maqsadida ijtimoiy soha obyektlariga birkirilgan tadbirkorlar ro'yxati

№	Hudud nomi (tuman/shahar) Muassasa nomi	Soha nomi	tuman/shahar	Tadbirkor
Qoraqalpog'iston Respublikasi			Manzil	
	Boshqa tashkilotlar			
XVII	Ellikqala tumani			
1	1 maktab	Xalq ta'limi	Sarabiy OFY	Ayazqal'a maxsus qurilish MChJ
2	2 maktab	Xalq ta'limi	Qilichinoq OFY	Ayazqal'a maxsus qurilish MChJ
3	3 maktab	Xalq ta'limi	Qilichinoq OFY	Ayazqal'a maxsus qurilish MChJ
4	4 maktab	Xalq ta'limi	"Cho'pon" MFY	Ayazqal'a maxsus qurilish MChJ
5	5 maktab	Xalq ta'limi	"Paxtachi" MFY	Ayazqal'a maxsus qurilish MChJ
6	8 maktab	Xalq ta'limi	Sarabiy OFY	Ayazqal'a maxsus qurilish MChJ
7	9 maktab	Xalq ta'limi	Qoshqo'ra MFY	Ayazqal'a maxsus qurilish MChJ
8	23 maktab	Xalq ta'limi	"Qilichinoq" OFY, "Oltin sohil" a/p	Ayazqal'a maxsus qurilish MChJ
9	49 maktab	Xalq ta'limi	Sarabiy OFY	Ayazqal'a maxsus qurilish MChJ

10	53 maktab	Xalq ta'limi	Cho'pon MFY	Ayazqal'a maxsus qurilish MChJ
11	58 maktab	Xalq ta'limi	Sarabiy OFY	Ayazqal'a maxsus qurilish MChJ
12	68 maktab	Xalq ta'limi	"Qoshqo'ra" MFY Istiqlol ko'chasi	Ayazqal'a maxsus qurilish MChJ
13	10 maktab	Xalq ta'limi	Amirabod OFY "O'rnak" aholi punkti	Islomboy Reyimov MChJ
14	27 maktab	Xalq ta'limi	Do'stlik OFY metar yeri a/p	Islomboy Reyimov MChJ
15	28 maktab	Xalq ta'limi	«Amirabod» OFY Amirobod A/P	Islomboy Reyimov MChJ
16	33 maktab	Xalq ta'limi	Chuqurqoq OFY	Islomboy Reyimov MChJ
17	41 maktab	Xalq ta'limi	"Do'stlik" OFY Charchi A/P	Islomboy Reyimov MChJ
18	46 maktab	Xalq ta'limi	Amirabod OFY	Islomboy Reyimov MChJ
19	62 maktab	Xalq ta'limi	"Ellikqal'a" OFY Paxtakor ko'chasi	Islomboy Reyimov MChJ
20	70 maktab	Xalq ta'limi	Amirabod OFY	Islomboy Reyimov MChJ
21	6-son DMTT	Maktabgacha ta'lim	Sharq Yulduzi OFY	Tuproqqal'a Maxsus qurilish MChJ
22	8-son DMTT	Maktabgacha ta'lim	Guldursun OFY	Tuproqqal'a Maxsus qurilish MChJ
23	10-son DMTT	Maktabgacha ta'lim	Cho'pon MFY	Tuproqqal'a Maxsus qurilish MChJ
24	12-son DMTT	Maktabgacha ta'lim	Aqchako'l OFY	Tuproqqal'a Maxsus qurilish MChJ
25	15-son DMTT	Maktabgacha ta'lim	Iftixor MFY	Tuproqqal'a Maxsus qurilish MChJ
26	18-son DMTT	Maktabgacha ta'lim	Do'stlik OFY	Tuproqqal'a Maxsus qurilish MChJ
27	21-son DMTT	Maktabgacha ta'lim	Tuproqqal'a MFY	Tuproqqal'a Maxsus qurilish MChJ
28	22-son DMTT	Maktabgacha ta'lim	Qoshqo'ra MFY	Tuproqqal'a Maxsus qurilish MChJ
29	23-son DMTT	Maktabgacha ta'lim	Ixlos MFY	Tuproqqal'a Maxsus qurilish MChJ
30	24-son DMTT	Maktabgacha ta'lim	Qilichinoq OFY	Tuproqqal'a Maxsus qurilish MChJ
31	25-son DMTT	Maktabgacha ta'lim	Sarabiy OFY	Tuproqqal'a Maxsus qurilish MChJ
32	26-son DMTT	Maktabgacha ta'lim	Sarabiy OFY	Tuproqqal'a Maxsus qurilish MChJ
33	27-son DMTT	Maktabgacha ta'lim	Chuqurqoq MFY	Tuproqqal'a Maxsus qurilish MChJ
34	28-son DMTT	Maktabgacha ta'lim	Qilichinoq OFY	Tuproqqal'a Maxsus qurilish MChJ
35	29-son DMTT	Maktabgacha ta'lim	Kichik Guldursun MFY	Tuproqqal'a Maxsus qurilish MChJ

36	30-son DMTT	Maktabgacha ta'lim	Qoshqo'ra MFY	Tuproqqal'a Maxsus qurilish MChJ
37	33-son DMTT	Maktabgacha ta'lim	Paxtachi MFY	Tuproqqal'a Maxsus qurilish MChJ
38	14 maktab	Xalq ta'limi	"Iftixor" MFY	Ellikqal'a qurilish ta'mirlash firmasi
39	18 maktab	Xalq ta'limi	"Qirqqiz" OFY	Ellikqal'a qurilish ta'mirlash firmasi
40	26 maktab	Xalq ta'limi	"Dumanqal'a" MFY Dumanqala a/p №18	Ellikqal'a qurilish ta'mirlash firmasi
41	29 maktab	Xalq ta'limi	"Kichik Guldursun" MFY	Ellikqal'a qurilish ta'mirlash firmasi
42	30 maktab	Xalq ta'limi	"Guldursin" MFY	Ellikqal'a qurilish ta'mirlash firmasi
43	31 maktab	Xalq ta'limi	Qizilqum OFY	Ellikqal'a qurilish ta'mirlash firmasi
44	40 maktab	Xalq ta'limi	"Oq oltin" MFY T. 220 bino	Ellikqal'a qurilish ta'mirlash firmasi
45	44 maktab	Xalq ta'limi	"Qirqqiz" OFY	Ellikqal'a qurilish ta'mirlash firmasi
46	45 maktab	Xalq ta'limi	Qirqqiz OFI Beruniy a/p	Ellikqal'a qurilish ta'mirlash firmasi
47	52 maktab	Xalq ta'limi	"IFTIXOR" MFY Uzbekiston 1 kuchasi 11 bino	Ellikqal'a qurilish ta'mirlash firmasi
48	60 maktab	Xalq ta'limi	"Yangi O'zbekiston" MFY U. Yusupov a/p	Ellikqal'a qurilish ta'mirlash firmasi
49	64 maktab	Xalq ta'limi	Navoiy OFY, Ashirtom AP	Ellikqal'a qurilish ta'mirlash firmasi
50	Kumbaskan OShP	Sog'liqni saqlash	Qumbasqan OShP	Ellikqal'a qurilish ta'mirlash firmasi
51	Dumankala OShP	Sog'liqni saqlash	Dumanqal'a MFY	Ellikqal'a qurilish ta'mirlash firmasi